

SHARQ VA G'ARB ADABIYOTI TA'SIRIDA O'ZBEK MODERN ADABIYOTI**Raximova Dilsora To'ychi qizi**<https://doi.org/10.5281/zenodo.13739878>

Annotatsiya. Mazkur tezisda modernizmning o'zbek adabiyotiga ta'siri va uning adabiy asarlardagi obraz va ramzlar talqinini qanday shakllantirishi o'rganiladi. Modernizm adabiy oqim sifatida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida paydo bo'lib, an'anaviy shakl va konvensiyalarga qarshi kurash olib bordi, shu bilan birga uslub va mazmundagi tajriba va yangilikni o'z ichiga oldi.

Kalit so'zlar: modernism, sharq adabiyoti, simvolizm, kompazitsiya.

Asosiy qism

Modernizm g'oyat rang-barang va murakkab falsafiy-estetik hodisa bo'lib, u inson (jumladan, ijodkor) ijtimoiy, siyosiy, psixologik, falsafiy, badiiy-estetik tafakkur tarzidagi jiddiy o'zgarishlar negizida maydonga kelgan. Mazkur o'zgarishlarning salmog'i g'oyat zalvorli. U badiiy tafakkur shaklidagi o'zigacha mavjud bo'lgan an'anaviy qarashlarning barchasini inkor qiladi va o'z realligini ilgari suradi.

Modernizm haqida prof. D. Quronov (va boshq.) tayyorlagan lug'atda shunday deyiladi: «MODERNIZM (fr. moderne – eng yangi, zamonaviy) – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ommalashgan termin, san'at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi... M. o'tgan asr oxirlaridan boshlab maydonga chiqqan, ijodiy dasturlari va ijod amaliyoti jihatidan turli-tuman adabiy maktab va yo'nalishlar (ekspressionizm, impressionizm, simvolizm, akmeizm va b.) o'ziga asos bilgan estetik tizim, ijodiy metod sifatida tushuniladi. M. doirasidagi maktab va oqimlar nechog'lik turfa bo'lmasin, ularni umumlashtiruvchi qator nuqtalar mavjud. Avvalo, dunyoqarash jihatidan ular nafaqat XIX asrda ommalashgan pozitivizm, balki asrlar davomida shakllangan an'anaviy xristian dunyoqarashidan ham deyarli uzilib, F. Nitshe, Z. Freyd, A. Bergson, U. Jeyms kabi mutafakkirlar qarashlaridan 7 oziqlanadi. Shunga mos tarzda M. yo'nalishidagi maktab va oqimlarning aksariyati adabiy-madaniy an'analarni ham turli darajada inkor qiladi va yangi davrga mos yangi adabiyot yaratish da'vosini olg'a suradi... M.ga xos umumiy xususiyatlardan biri shuki, u obyektiv voqelikning tasviri o'rniga uning ijodkor tasavvuridagi badiiy modelini yaratishni maqsad qiladi. Ya'ni bu o'rinda voqelikni aks ettirish emas, ijodkorning o'z-o'zini ifodalashi (ekspressionizm) ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ijodda subyektivlikning oldingi o'ringa chiqarilishi, mantiqiy bilishdan intuitiv bilishning yuqori qo'yilishi, inson ichki olamida kechuvchi tizginsiz evrilishlarga ayrica e'tibor berilishi (ong oqimi), ijodkor shaxs ijodiy taxayyuli va u aks ettirgan voqelikning betakror hodisa sifatida tushunilishi, o'z o'y-hislarini hech qanday (ma'naviy, axloqiy, siyosiy va b.) cheklovlarisiz ifodalash huquqining e'tirof etilishi ham M.ga xos xususiyatlardandir. Ijodiy erkinlik nafaqat g'oyaviy-mazmuniy, balki shakliy izlanishlarda ham mutlaqo daxlsiz. M. asrlar davomida shakllangan adabiy kanonlarni inkor qiladi va har qanday normativlikka qarshi (futurizm) turadi. Bu hol M.dagi badiiy obraz strukturalari, asarning subyektiv va obyektiv tashkillanishi, bayon tarzi, syujet-kompozitsion qurilishi, til xususiyatlari – xullas, adabiy asarning barcha sathlarida shakliy o'ziga xosliklarni yuzaga keltiradi».

Modernizmning asosiy darakchilari deya Dostoyevskiy («Jinoyat va jazo», «Aka-uka Karamazovlar»), Uitmen («Maysalar yaproqlari»), Bodler («Yovuzlik chechaklari»), Rembo («Dil yorishishi») va Stringberg (so'nggi pyesalari) kabi yozuvchi, shoir va dramaturglar esga

olinadi. Ijodkorlarga kuchli ta'sir qilgan faylasuf va ruhshunoslardan Fridrix Nitshe, Anri Bergson, Zigmund Freyd, Uilyam Jeyms va boshqalar nomini sanash mumkin. Sho'ro davrida modernizmga taqiq qo'yildi. Bu ishning o'ziga yarasha arzigulik sabablari bo'lsa-da (chunonchi, modernizm individualizmni yoqlaydi, axloqiy chegarani tan olmaydi, har qanday an'anani inkor qiladi, Yevropa madaniyatini boshqa madaniyatlardan ustun qo'yadi va h.k.), oqimning dunyo tan olgan, jahon adabiyotida alohida mavqega ega vakillari borki, ularning asarlarini man qilish insonni yaxshi bilmaslik, uning badiiy tafakkur tadrijini mensimaslik bilan teng. Zero, modernizmni bilishga intilish insonni bilishga, uning botinidagi puchmoqlarga bo'ylashga, ichkaridagi ziddiyatlardan boxabar bo'lishga intilishdir, buning mahliyolik yoki g'arbparastlik bilan aslo aloqasi yo'q. Insonning san'at-u adabiyotdagi har bir hodisaning tub ildizlariga sog'lom nazar sola bilishi alaloqibat uning dunyoqarashi butunligini ta'minlabgina qolmay, ma'naviy immunitetini ham chiniqtiradi.

«Modernizm nima?» degan savolga dunyo va o'zbek olimlari ko'pdan beri javob berib kelishadi, aytish joizki, haligacha bu masala ustida bahslar yakunlangani yo'q. Zero, modernizm o'zbek olimi, professor Ozod Sharafiddinov ta'kidlab aytganidek, «jo'n hodisa» emas. O'zbek adabiyotshunosligida, ayniqsa, istiqlol yillarida modernizm atrofida qizg'in bahslar bo'ldi. Bahslarda modernizmni o'zbek mentalitetiga butunlay yot mafkura yoki, aksincha, modernizm insoniyat badiiy-tafakkur tadrijining bir bosqichi, uni o'qib-o'rganishning hech bir zarari yo'q degan turli qarashlar aytili. Chunonchi, filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Sarimsoqov «Absurd ma'nisizlikdir» maqolasida modernizm oqimlaridan biri – absurdni keskin tanqid ostiga oladi, uni «inqiroz», ekzistensializm oqimini esa «subutsiz» deb ataydi. Bu qarashga javoban filologiya fanlari doktori, professor Umarali Normatov o'z nuqtayi nazarini ilgari surib, absurd va ekzistensializm yo'nalishidagi asarlarga san'at hodisasi sifatida qarash kerakligi haqidagi fikrni ilgari suradi: «B. Sarimsoqovning absurd va ekzistensializmga bergan bahosi o'ta munozarali. San'at hodisasi sifatida absurd tushunchasi bu so'zning lug'aviy ma'nosidan o'zgacharoqdir. Absurd, B. Sarimsoqov da'vo qilganidek, aslo ma'nisizlik emas, balki, aksincha, teran ma'noga ega. Absurd adabiyot, san'atda adashgan, aldangan, behuda, samarasiz mehnat-faoliyatga, ma'nisiz qismatga muhtalo etilgan shaxsning fojiasini ochib berish, kutilmagan tomonlardan o'ziga xos tarzda badiiy tahlil etishdan iborat». Ko'rinib turganidek, qarashlar har xil, ziddiyatli. Bahs-u munozaralar hali-hanuz davom etmoqda. Talaba-yoshlar bu bahsda qaysi fikr jo'yaliroq ekanini bilish uchun modernizm va uning yo'nalishlari mohiyatini teranroq o'rganib chiqishlari lozim bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, modernizm garchi «dunyo madaniyati markazida Yevropa madaniyati (yevroposentrizm) turadi» desa-da, u bilan bog'liq butun boshli qarashlar tizimi, bu tizim vujudga keltirgan san'at-u adabiyot o'rganilishi lozim. Chunki u bashariyat ming yillar mobaynida bosib o'tib kelayotgan falsafiy, badiiy-estetik tafakkur yo'lining bitta bosqichi sifatida o'z o'zni va ahamiyatiga ega.

References:

1. Модернизм. Сборник. – М.: Искусство, 1987.
2. Гассет Х.О. Дегуманизация искусства. – М.: Радуга, 1991.
3. Боров. Эстетика. – М.: Политическая литература, 1981.
4. Затонский Д.В. Модернизм и постмодернизм. – Харьков: Фолио, 2000.
5. Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014.